NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

GLOBALLASHUV SHAROITIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Teshaboyev Abbos Xoldorjon o‘g‘li
Arxeologiya kafedrasi katta-o‘qituvchisi
Namangan davlat universiteti
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-7534-1662

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli tadqiq etilgan. Fuqarolarning jamiyatda ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish, ularni qonuniy manfaatlarini himoya qilish va davlat organlari hamda jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorliklarni yanada mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati tadqiq qilingan. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatlariga ta’sir qiluvchi omillar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borgan tadqiqotimiz natijasida, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni shakllantirish va qaror toptirish hamda barqaror rivojlanishda katta ahamiyat kasb etishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, globallashuv, fuqarolik institutlari, jamoatchilik nazorati, demokratik taraqqiyot, fuqarolik faolligi, ijtimoiy hamkorlik, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, huquqiy davlat*

ОСОБАЯ РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и место институтов гражданского общества в развитии общества в контексте глобализации. Анализируется важность институтов гражданского общества в дальнейшем повышении социально-политической активности граждан в обществе, защите их законных интересов и дальнейшем укреплении сотрудничества между государственными органами и общественностью. Кроме того, с социально-философской точки зрения анализируются факторы, влияющие на деятельность средств массовой информации, государственных структур и неправительственных некоммерческих организаций в современную эпоху глобализации. В результате исследования установлено, что институты гражданского общества играют значительную роль в формировании и принятии демократических ценностей в нашем обществе, а также в устойчивом развитии.*

Ключевые слова: *гражданское общество, глобализация, гражданские институты, общественный контроль, демократическое развитие, гражданский активизм, социальное сотрудничество, СМИ, неправительственные организации, верховенство права*

THE SPECIAL ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Abstract: *This article examines the role and place of civil society institutions in the development of society in the context of globalization. The importance of civil society institutions in further increasing the socio-political activity of citizens in society, protecting their legitimate interests, and further strengthening cooperation between state bodies and the public is examined. In addition, the factors influencing the activities of the media, public structures, and non-governmental non-profit organizations in the current era of globalization are analyzed from a socio-philosophical perspective. As a result of our research, it was determined that civil society institutions play a significant role in the formation and adoption of democratic values in our society, as well as in sustainable development.*

Keywords: *civil society, globalization, civic institutions, public oversight, democratic development, civic activism, social cooperation, media, non-governmental organizations, rule of law*

Kirish (Introduction). Fuqarolik jamiyati borasidagi qarashlar qadimgi falsafiy maktablarda boshlangan bo‘lib, hozirgi zamonaviy siyosiy va huquqiy konsepsiyalargacha bo‘lgan ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Qadimgi davrlarda yashab o‘tgan mutafakkir va olimlar insonlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, erkinligi va adolatli jamiyat haqida turli-xil g‘oyalarni ilgari surganlar. Ushbu fikrlar asosida fuqarolik jamiyati to‘g‘risida tushunchalar sekin-asta shakllandi va rivojlanishning turli davrlarida o‘ziga xos mazmun kasb etdi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta’minlash maqsadida chiqarilayotgan Prezident Farmonlari va hukumatimiz qarorlari bu borada faoliyatimizning asosiy dasturilamali bo‘lishi zarur. Vatanimiz ozod, mamlakatimiz obod va erkin hamda farovon hayot asosiy yo‘limiz ekanligi, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad eng avvalo xalq manfaati va yoshlarimiz kelajagi uchun qaratilmog‘i joiz.

Yangi O‘zbekistonda o‘ziga hos o‘rin tutayotgan mahallalarimiz ijtimoiy va madaniy-ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mahalla faoliyatiga doir bir nechta qonun va qarorlar qabul qilindi, uning vakolatlari kengaytirildi, jamiyatimiz islohotlarini amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta’sirchan vositasi sifatida shakllana boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature revitw). Maqola yuzasidan xorijda va yurtimizning faoliyat yuritgan olimlarining ilmiy tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy falsafiy tahlili va bu bo‘yicha ularning fikrlari, shuningdek, bir qator olimlarning fuqarolik jamiyatini rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Jumladan: G‘arbning buyuk mutafakkirlari hisoblangan – Platon, Aristotel, Plutarx, N. Makiavelli, G. Gegel, Sh. Montesk’e, A. Tokvil hamda F. Nitshening bir qator asarlarida fuqarolik jamiyati va kishilarning jamoaviy yashash tarziga bag‘ishlangan fundamental falsafiy ma’lumotlar aks etgan[15].

Keyingi davrlarda esa, bu borada M. Veber, R. Taker, T. Karleyl, K. Yaspers, J. Blondel, A. Bodalev, L. Rutkevich, E. Abashkin, Y. Kosolapova, G. Avsinova, D. Adair, G. Avsinova, G. Ashin, I. Graus, I. Dubov, R. Krichevskiy, S. Maletin, J. Maksvell, N. Pishulin, D. Slizovskiy[16] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ilmiy nazariyalari, siyosiy, falsafiy hamda sotsiologik ta’limotlari mavjud.

Bundan tashqari, yurtimiz tarixi haqidagi qimmatli manba hisoblangan “Avesto”, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nizomulmulk, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Xomid G‘azoli, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur[17] singari mutafakkirlarimizning asarlarida adolatli boshqaruv, fuqarolik jamiyati haqidagi sharqona qarashlar, mahalla va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, urf-odat hamda marosimlar haqidagi qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Shuning uchun ham mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng xalqimizning urf-odat, an’ana, qadriyat va udumlarini tiklash hamda mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning asosiy omillaridan biri sifatida “mahalla” institutini tiklash, rivojlantirish va uning faoliyatini izchillik bilan amalga oshirishga katta e’tibor qaratildi va hozirgi kunda bu soha borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiylik, kuzatish, o‘zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo‘ldikki, globallashuv davrida fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati katta hisoblanadi. Umuman olganda, Fuqarolik jamiyati tushunchasi antik davrdan g‘arb ma’rifatchilarigacha bo‘lgan uzoq davr mobaynida turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan[18].

Fuqarolik jamiyatining paydo bo‘lishiga qadar aksariyat mamlakatlarda mutlaq monarxiya tizimlari amalda bo‘lgan. Davlat shaxs hayotini sinfiy tizim qoidalari asosida qattiq chegaralar edi. Davlat birgina monarx timsolida ba’zi sinflarga

---

[15] Платон. Сочинения. – М., 1968 – 1971. Т. 3., ч. 1.; Аристотель. Политика / Сочинения. М., 1983. Т.4; Плутарх. Избранные жизнеописания. – М., 1987. Т. 1; Т.2; Макиавелли Н. Государь. – М., 1990.; Гегель Г. Политические произведения. – М., 1978; Монтескье Ш. Л. О духе законов. – М., 1999.; Токвиль А. Демократия в Америке / Пер. с. франц. – М., 2000.; Ницше Ф. Так говорил Заратустра: Книга для всех и ни для кого. – М., 1990;

[16] Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990., Такер Р. О лидерстве в политике / Материалы семинара: Политическое лидерство и президентская форма правления. – Алматы, 2003. – С. 22–38.; Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в истории / В кн. Карлейль Т. Теперь и прежде / Сост. Медведева Р. К. – М., 2004; Ясперс К., Бодийар Ж. Призрак толпы. – М., 2007; Блондсл Ж. Политическое лидерство. – М., 1992; Бодалев А. А. Личность и общение / Избр. произ. – М., 1983; Руткевич Л. А. Как становятся великими или выдающимися? – М., 1997; Абашкина Е., Косолапова Ю. О теориях лидерства в современной политической психологии / США: экономика, политика, идеология. – 1993. – №4. – С. 22–34; Авцинова Г. И. Политическое лидерство // Государство и право. – 1993. – №5; O‘sha muallif: Политическое лидерство // Государство и право. – 1993. – №5. – С. 12–I7.; Адаир Д. Психология власти: концепция непререкаемого лидерства / Пер. с. англ. – М., 2004.; Ащин Г. К. Политическое лидерство: оптимальный стиль // Общественные науки и современность. – 1993. – №2.; Граус И. Личность – как социальной компонент власти: Человек. Этика. Общество. – М., 1990; Дубов И. Г., Пантелеева С. Р. Восприятие личности политического лидера // Психология. – 1992. – №2.; Кричевский Р. Л. Психология лидерства. – М., 2007; Малетин С. С. Политическое лидерство. – Новосибирск, 2002; Максвелл Дж. 21 обязательное качество лидера. – Минск, 2002; Пишулин Н., Сокол С. Политическое лидерство: теоретические и методологические основы исследования. – М., 1992; Слизовский Д. Е. Политическое лидерство в России: история, опыт, проблемы. Учеб.пособие / Под. ред. Д. Е. Слизовского, Н. В. Шуленина. – М., 2000.

[17] Карим Т. Муқаддас “Авесто” изидан. – Тошкент, 2000; Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Тошкент: Моваройуннахр, 2005; Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001; Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968; Абу Али Ибн Сина. Философский трактаты. – Москва: Наука, 1980; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.

[18] Boris DeWiel. A Conceptual History of Civil Society: From Greek Beginnings to the End of Marx. Past Imperfect. Vol. 6, 1997, pp.3-42

keng imtiyozlar bersa, boshqalarini barcha imkoniyatlardan mahrum qilar edi[19]. Albatda, bundey jamiyat bilan uzoqqa borib bo‘lmasligini tarix bizga ko‘rsatdi. Chunki, qadimdan insonning manfaatlari himoyasi, huquqlari va erkinliklari bo‘yicha o‘sha davr xurfikrlari ommani ruxlantirish va xaq xuquqlarini bilib olishlari uchun turli-xil asarlar va nutqlar so‘zlab kelishgan.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va har jihatdan barkamol avlod va komil inson tarbiyasiga bog‘liqdir. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni ma’naviy tahdidlardan himoya etishda ularni milliy ma’naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi va shu bilan birga yurtimizda qadim zamonlardan buyon tarbiya maskani sifatida oilani muqaddas hisoblab kelgan. O‘zbek oilalarida bolalarni faqat ota-onagina emas, balki qarindosh urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y tarbiyalaydi, degan gap bor[20]. Shuning uchun ham hozirgi kunda jamoatchilik nazorati kabi xalqimizning eng faol qatlamlari uyushmasiga keng imkoniyat va vakolatlar berilmoqda. Chunki, xalqimizda bir gap bor bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan. Shularni inobatga olgan holda yoshlarimizga bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ish bilan ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda.

Bugungi dunyodagi globallashuv muhiti kechayotgan davrda aholi faolligini oshirishining samarali tizimini yaratish zamon talabiga aylandi. Fuqarolarimizning jamoatchilik nazorati natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari[21]” tamoyiliga, asosan, ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi asosida 2022-yil O‘zbekistonda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”[22], deb e’lon qilindi. Inson manfaatlari va uning qadri ustuvorligiga asoslangan xalqchil siyosat mamlakatimizda xalqimizning noyob an’ana va qadriyatlari, shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlari bajarilishini kafolatlaydigan, o‘zini o‘zi boshqarish institutining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan mahalla institutining rivojlantirilishi asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda ushbu bo‘g‘inning nufuzini oshirish va unga qo‘shimcha vakolatlar berish borasida qator me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, tizimning yangicha ishlash mexanizmlari yaratilmoqda.

Jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarini faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta’minlashda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda alohida e’tibor qaratildi[23].

Fuqarolik jamiyatida demokratik tuzimning mavjudligi va uning mustahkamlanib borishi fuqarolarda siyosiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shartidir. Bunday siyosiy tizim shaxs siyosiy – huquqiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag‘batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo‘lsa, inson siyosiy hayotda shunchalik faol ishtirok etadi. Bu – aksiomadir[24]. Mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar va erishilayotgan yutuqlarda fuqarolik jamiyati institutlarining munosib hissasi bor. Fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish, ularning siyosiy ongi va tafakkurini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, ularni ishga joylashtirish, aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va boshqa sohalarda fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshib borayotgani buning isbotidir. Bunda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali tizim yaratilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish globallashuv davri salbiy hodisalari xavfini kamaytirish va yoshlarni ma’naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalash uchun ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarur. Zero, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlargina jamiyatning asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglaydi[25]. Hozirgi vaqtda ko‘plab davlatlarda yoshlarning buzg‘unchi g‘oyalarga uchib yo‘ldan adashib qolganlari ham kam emas albatta. Shuning uchun mahalla faollari va oila boshliqlari farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishi va ularni bo‘sh vaqtlarida kitob o‘qishni targ‘ib qilishlari va ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari talab etiladi.

Globallashuv vositalari – ommaviy madaniyatni keng yoyilishiga imkoniyat yaratayotgan ayni bir paytda, ayniqsa dunyo yoshlarining soni ikki milliarddan oshib ketgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotganligi va ularning kelajagi uchun himoya zarurligi muhim masaladir. Ommaviy madaniyat o‘zbek xalqining tafakkuriga, musiqasi, kiyinishi, o‘zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda[26]. Bunday

[19] Жалилов А., Мухаммадиев У., Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2015. – 10 б.

[20] Рўзимуродов С. М. Оилада соғлом ва обод турмуш тарзини шакллантиришнинг фалсафий-эстетик муаммолари. Фалсафа фан. докт. дисс... автореферати. – Самарқанд, 2020. – Б. 11.

[21] https://lex.uz/docs/-5841063

[22] https://lex.uz/ru/docs/-6379690

[23] Abdusamatov A. Fuqarolik jamiyati (darslik). – Toshkent, 2018. – B. 82.

[24] Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – Б. 248.

[25] Nazirov M. Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021. –B. 12.

[26] To‘xtayev H. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent, 2023. – B. 213.

illatlardan yoshlarimizni asrash uchun milliyligimizni targ‘ib qiluvchi madaniy tadbirlarni ommalashtirish muhim hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonlari jamiyatning deyarli barcha jabhalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, fuqarolik jamiyati institutlarining qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Avvalo, fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy vazifa fuqarolarning huquq va erkinliklarini birinchi o‘ringa qo‘yish, ularni ijtimoiy-siyosiy faolliklarini doimiy qo‘llab-quvvatlash hamda davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro muloqotni samarali ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari demokratik qadriyatlarning saqlab qolish va rivojlantirishda hamda fuqarolik madaniyati shakllantirshda ahamiyati ortib bormoqda.

Takliflar:

1. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish,
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy loyihalarini moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish,
3. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kengaytirish
4. Zamonaviy texnologiyalar yordamida jamoatchilik nazorati va fuqarolar ishtirokini yanada kengaytirish
5. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ochiq muloqot mexanizmlarini takomillashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar (references)

1. Платон. Сочинения. – М., 1968 – 1971. Т. 3., ч. 1.; Аристотель. Политика / Сочинения. М., 1983. Т.4; Плутарх. Избранные жизнеописания. – М., 1987. Т. 1; Т.2; Макиавелли Н. Государь. – М., 1990.; Гегель Г. Политические произведения. – М., 1978; Монтескье Ш. Л. О духе законов. – М., 1999.; Токвиль А. Демократия в Америке / Пер. с. франц. – М., 2000.; Ницше Ф. Так говорил Заратустра: Книга для всех и ни для кого. – М., 1990;

2. Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990., Такер Р. О лидерстве в политике / Материалы семинара: Политическое лидерство и президентская форма правления. – Алматы, 2003. – С. 22–38.;

3. Карим Т. Муқаддас “Авесто” изидан. – Тошкент, 2000; Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005; Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001; Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968; Абу Али Ибн Сина. Философский трактаты. – Москва: Наука, 1980; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.

4. Boris DeWiel. A Conceptual History of Civil Society: From Greek Beginnings to the End of Marx. Past Imperfect. Vol. 6, 1997, pp.3-42

5. Жалилов А., Мухаммадиев У., Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2015. – 10 б.

6. Рўзимуродов С. М. Оилада соғлом ва обод турмуш тарзини шакллантиришнинг фалсафий-эстетик муаммолари. Фалсафа фан. докт. дисс... автореферати. – Самарқанд, 2020. – Б. 11.

7. https://lex.uz/docs/-5841063

8. https://lex.uz/ru/docs/-6379690

9. Abdusamatov A. Fuqarolik jamiyati (darslik). – Toshkent, 2018. – B. 82.

10. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – Б. 248.

11. Nazirov M. Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021. –B. 12.

12. To‘xtayev H. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent, 2023. – B. 213.